

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IQTIDORLI YOSHLAR BILAN ISHLASHNI TIZIMLI TASHKIL ETISH MASALALARI

Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi

Andijon davlat chet tillari institutining

Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik
kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

Annotatsiya:

Ushbu maqolada iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va tayyorlashning asosiy maqsadi, Respublikamizning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual yoshlarni tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish orasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtidorli yoshlar, taraqqiyot, ilmiy tadqiqot, iste'dod, vatanparvarlik

Iqtidorli yoshlar - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi.

Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy - maqsadi Respublikamizning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual yoshlarni tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.

O'zbekiston jahonga Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Imom Al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Naqshbandiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat kabi nomlari dunyoga taralgan qomusiy olimlar, shoirlar, ma'rifatchilar va lashkarboshilarni yetkazib bergan. Avlodlari buyuk bo'lgan millatniig farzandlaridan ham buyuklar yetishib chiqishi tabiiydir. Rivojlangan demokratik davlatlar bilan ilm-fan, ta'lim madaniyat va boshqa sohalar bo'yicha o'rnatilgan aloqalar yoshlarga, shu jumladan talaba-yoshlarga ularning intellektual salohiyatlarini namoyon qilish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bo'yicha ijodiy va mustaqil fikrlashni shakllantirish, texnik va texnologik masalalarni hal qilishda



ijodiy yondashish ko'nikmalarini mujassamlashtirish lozim. Buning uchun talaba yoshlarning ongiga mustaqil ta'lim olish zaruratini singdirish talab etiladi. Ayniqsa, ular tafakkurini milliy istiqlool g'oyasi bilan sug'orish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'kidlanganidek: "maxsus o'quv dasturlari va ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi".

- iqtidorli talabalarni izlash va aniqlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni intellektual salohiyatini aniqlab borish;
- iqtidorli talabalarni qobiliyati va qanday yo'nalishga moyilligiga qarab maqsadli tayyorlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga, ilmiy to'garaklarga va ijodiy jamoalariga jalb qilish;
- iqtidorli talabalarni ilmiy va amaliy anjumanlarga, universitet, universitetlararo, Respublika va xalqaro konferensiya, simpozium, olimpiada va tanlovlarda qatnashishlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi va nomli Davlat stipendiyalariga, fan olimpiadalariga nomzodlarni tayyorlash, ularning sovrindor bo'lishiga erishish;
- reytingi yuqori iqtidorli talabalar va ularning rahbarlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;
- iqtidorli talabalar uchun ixtisosligi bo'yicha kasb o'yinlari va tavlovlarni tashkil etish;
- tarjimonlik yo'nalishi bo'yicha iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy to'garaklarini tashkil etish va ilmiy-ijodiy izlanishlarga tegishli shart-sharoit yaratib berish;
- tanlangan yo'nalish bo'yicha qo'shimcha adabiyot va boshqa manbaalar bilan iqtidorli talabalarni ta'minlash va ulardan foydalanish usullarini o'rgatish;

Yuqorida keltirilgan vazifalarni samarali amalga oshirish ishiga fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, o'quv ishlari bo'yicha bo'lim boshliqlari va guruh tyutorlari mas'ul hisoblanadi. Iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish va ularni maqsadli tayyorlash yuzasidan fakultet va kafedralarda, quyidagi ish jildnomalarini yuritish tavsiya etiladi:

- iqtidorli talabalar bilan ishlash Nizomi;
- iqtidorli talabalar bilan ishlash ish rejasi ;
- ish rejasining bajarilishi to'g'risida hisobotlar;



- iqtidorli talabalarga oid filial rahbaryatining buyruqlari;
- konferensiya, olimpiada, tanlovlar o'tkazilishiga oid hujjatlar;
- O'zbekiston Respublikasining Prezidenti nomidagi Davlatstipendiyasi va nomli Davlat stipendiyalariga oid hujjatlar;
- iqtidorli talabalarni izlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risidagi yuqori boshqaruv organlarining qarorlari va buyruqlari;
- iqtidorli talabalar va ularga biriktirilgan rahbarlar to'g'risida filial direktorining buyrug'i;

IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASH

Iqtidorli talabalarni aniqlash ko'p bosqichli murakkab jarayon hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yoshlarning qaysi sohalarga qiziqishini, iqtidorini maxsus psixologik testlar yordamida psixologlar aniqlab boradilar. Iqtidorli talabalarni aniqlashda ularda quyidagi fazilatlarni shakllanganlik darajasini hisobga olish lozim bo'ladi:

- fanni bilishi;
- intellektual salohiyati;
- ishlash qobiliyati;
- ilmiy tadqiqot ishiga qiziquvchanligi;
- mas'uliyatni his qilishi;
- keng dunyoqarashga egaligi;
- tashabbuskorligi;
- vatanparvarligi;
- ona tilida, rus tilida va chet tilida erkin gaplasha olishi;
- yetakchilik qila olish qobiliyati;
- maqsad sari intiluvchanligi;
- ma'naviy tafakkuri;
- muomila va atrof muhit bilan munosabat o'rnatish qobiliyati;
- nutq madaniyati;

Yuqorida keltirilgan fazilatlarni shakllanganlik darajasini og'zaki suhbat, maxsus test topshiriqlari asosida aniqlash mumkin. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va ular bilan ishlashni tashkil qilish bir necha yo'nalishlarda olib boriladi:

- ◆ oliy o'quv yurti kafedralarida birinchi kurs talabalari ichida;
- ◆ yuqori kurs talabalari ichida yangi yuzaga kelgan iste'dod egalarini aniqlash.



Tegishli kursda o'qitilgan fanlar topshiriq- testlaridan o'tkaziladi. Iqtidorli talabalarni aniqlashda, ayniqsa, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini hamda biror bir masala yechimiga tanqidiy yondashish fazilatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtidorli talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtidorli talabalarni ularning biror-bir voqelikni, hodisani yoki predmetni o'rganish uslubini aniqlash yo'li bilan ham tanlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'riyev O. Ma'naviyat gultoji-T.:O'qituvchi, 1997, 320 b
2. Zunnunov A.,M. Xayrullayev, N. Xotamov,D. SHodiyev O'rta Osiyoda pedagogik fikr tarakkiyotidan lavxalar. -T:Fan,1996,351bet.
3. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во "Наука". Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.
4. Ibragimov X. I. Teoreticheskiye osnovy professionalnogo samovospitaniya budushix uchiteley nachal'nykh klassov (na primere pedvuzov): pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T., Qori Niyoziy nomli O'zPFTI, 1999.- 307 b.
5. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opyta.-M.: Znaniye,1989.-80b.
6. WWW.ziyonet.uz

